

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Usanova Mahfuza Karamat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Hozir davr ta'limida mediasavodxonlikning dunyo bo'ylab keng yoyilishini, mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ya'ni mediasavodxonlik, mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etishini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, mediata'lim, mediasavodxonlik ko'nikmalari, texnologiyalarni integratsiya qilish, interaktiv metodlar.

KIRISH: Jahonda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsiya davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada "Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi yuqori sinf o'quvchilarida mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini rivojlantirishning inson faoliyatiga ta'siri va amaliy jarayonlar tashkil qila olish darajasida o'qitish, o'quvchi mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur dolzarb masalani Renee Hobbs – AQShning mediasavodxonlik bo'yicha tadqiqot olimlaridan biri bo'lib, media ta'limi, raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash sohalarida tahlil olib borgan bo'lib, u Media Education Lab asoschisi ekanligi jahon miqyosida o'rganilganligiga isbot bo'ladi.

ASOSIY QISM: MDHning ta'lim sifat-samaradorligi oshirish uchun mehnat ko'nikmalari takomillashtirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarda turli vositalaridan foydalanish, mashqlar tizimi bilimlarni chuqurroq egallash, turli uslubdagi ish xususiyatlarini yuqori darajasida o'rgatish, ta'lim mazmuni va metodlarini ishlab chiqishning nazariy masalalari tadqiq etilayotgan bo'lib, Janar Jarkinbekova, Gulnora Dadabayeva, Aynur Sodiqova ishlarida mediasavodxonlik takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgan.

O'quvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot manbalarini tahlil qilish va raqamli madaniyatni shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Pedagoglar va ota-onalar birgalikda harakat qilganda, o'quvchilar ommaviy axborot vositalaridan ongli va xavfsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi.

Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llabquvvatlaydi. Tashkilot, ayniqsa, siyosatchilar, o'qituvchilar, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari, yoshlar tashkilotlari va ushbu sohadagi nochor aholi qatlamlarining salohiyatini oshirishga intiladi, a'zo davlatlarga milliy ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi siyosati va strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

Media savodxonlikni o'rganadigan eng qadimgi tashkilot bu National Telemedia Council (Milliy Telemedia Kengashi) Viskonsin shtatining Madison shahrida joylashgan va Marieli Rou 50 yildan ortiq rahbarlik qilgan. Tashkilot dastlab "Telemedium" deb nomlanuvchi media savodxonlik jurnalini nashr ettirgan. Bugungi kunda Media savodxonlik bo'yicha butun dunyo mamlakatlarida keng targ'ibot va tashqivot olib borilmoqda. O'z qadriyat va ananalariga ega bo'lgan Osiyo mamlakatlarida media savodxonlik va uning ta'limga kirib kelishi jarayoni G'arb mamlakatlarinikidan biroz farq qiladi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sharqiy

Osiyoda media savodxonlik tomon siljish kuzatildi. So‘nggi yillarda Osiyoda media savodxonlik darajasi o‘tib bormoqda va Osiyo-tinch okeani mintaqasida media savodxonlik bo‘yicha bir nechta dasturlar ham amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekistonda 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab 10-11-sinf o‘quvchilarining „Tarbiya“ darsligiga “Media savodxonlik“ bo‘limi kiritildi. Respublikaning O‘zJOKU, TDSHU, O‘zMU, O‘zDJTU, QDU, SamDChTI kabi oliygohlarining jurnalistika fakultet va yo‘nalishlarida media savodxonlik darslari o‘tila boshlandi. So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma‘lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi media savodxonlikka ega bo‘lish zaruratini yanada oshirdi. An‘anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan. Bugun media savodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir.

Media savodxon inson o‘ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko‘rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko‘rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir.

Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh, mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo:

1. Huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
2. OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
4. Insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma‘lumotlarni “o‘qiy olish”;
5. OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

6. Axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Media savodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Media savodxonlik» (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, media savodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat. Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa media savodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimedia savodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

XULOSA: Fikrimizcha, media savodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кириллова Н. Медиакультура: от модерна к постмодерну. М., 2005. Cynthia Vinney. „Very well mind“. What Is Media Literacy? 2022
2. Azamat, M. S., & Rajabali, P. S. International Evaluation Programs. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology,
3. Mamatkobilova, S., & Julayeva, M. (2020). FACTORS AFFECTING FAMILY STRENGTH
4. Bakhtyorovna, K. M. (2024). WAYS OF FORMING PEDAGOGICAL SKILLS IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL WORK. Gospodarka i Innowacje, 48, 18-20.
5. M., K. . (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE TECHNOLOGY OF FORMING REFLECTIVE SKILLS IN FUTURE TEACHERS. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(8), 107–110